

TALABALARNING PEDAGOGIK AMALIYOTI NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH MAQSADIDA

Sayfullayev Doniyor Salohiddin o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Abduqodirov Akmalxo'ja

Ilmiy rahbar: e-mail: doniyorsayfullayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20352901>

Annotatsiya: Ushbu ishda zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik amaliyotning mazmuni, vazifalari hamda talabalarning professional shaxs sifatida shakllanishidagi o'rni atroflicha yoritilgan. Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilar uchun nafaqat o'quv jarayonining tarkibiy qismi, balki nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiruvchi, kasbiy mahorat poydevorini qo'yuvchi asosiy bosqich ekanligi tahlil qilingan. Matnda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, jumladan, o'quvchilar jamoasi bilan ishlash, dars jarayonini loyihalashtirish va pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik (kreativlik) va pedagogik mahoratni oshirishda amaliy mashg'ulotlarning roli, dars tahlili hamda o'z-o'zini baholash (refleksiya) ko'nikmalarini tarkib toptirish usullari bayon etilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda talabalarning psixologik-pedagogik tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan ishlashga o'rgatish hamda kasbiy faoliyatga moslashish jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik amaliyot, kasbiy kompetensiya, nazariya va amaliyot integratsiyasi, pedagogik mahorat, ijodkorlik, muloqot ko'nikmasi, psixologik moslashuv, innovatsion yondashuv.*

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat nazariy bilimga ega, balki o'z sohasida yuqori professional mahorat ko'rsata oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun pedagogik amaliyot — bu o'quv jarayonining markaziy bo'g'ini bo'lib, u talabani bevosita kasbiy faoliyatga tayyorlashning eng samarali bosqichi hisoblanadi. Shu sababli biz ham 3 hafta 5-maktabda amaliyot o'tab keldik. Amaliyotimiz 6-apreldan 25-aprelgacha davom edi. Biz bu vaqtda birinchi navbatda u yerdagi maktab direktori, maktab o'qituvchilari va maktab teratoriyasi bilan tanishib chiqdik. Shundan so'ng bizni ular maktabdagi o'qituvchilarga biriktirdi va biz darsni kuzatish uchun ular bilan darslarga kirdik. Tajribali o'qituvchilarning dars o'tish uslubi, o'quvchilar bilan muloqoti, mavzuni tushuntirishdagi yondashuvlari biz uchun katta o'rnak bo'ldi. Ayniqsa, darsni rejalashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish usullari menga juda qiziqarli tuyuldi. Kuzatuv jarayonida men o'qituvchilik kasbining naqadar mas'uliyatli va shu bilan birga sharafli ekanligini yanada chuqurroq angladim.

Biz amaliyot davomida tarbiya fanidan dars o'tdik va unda turli zamonaviy metodlardan foydalandik. Dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida interfaol usullar, jumladan, “Aqliy hujum”, “Savol-javob”, guruhlarda ishlash va rolli o'yinlardan keng foydalanildi. Bu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, ularning nutq madaniyatini oshirishga va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Dars davomida tarbiya fanining mazmun-mohiyati, insoniy fazilatlar, odob-axloq me'yorlari haqida tushunchalar berildi. O'quvchilar bilan hayotiy misollar asosida suhbat olib borilib, ularning mavzuga bo'lgan

qiziqishi yanada oshirildi. Ayniqsa, muhokama va tahlil jarayonlarida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon qilishga harakat qildilar. Shuningdek, darsni yanada samarali tashkil etish uchun ko'rgazmali vositalar va didaktik materiallardan foydalanildi. Bu esa mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli qilishga xizmat qildi. Dars yakunida o'quvchilar bilimlari mustahkamlanib, ular tarbiyaviy jihatdan muhim xulosalar chiqardilar. Umuman olganda, amaliyot davomida o'tilgan tarbiya darsi samarali va mazmunli bo'ldi. Qo'llanilgan metodlar o'z natijasini berdi va o'quvchilarning darsga bo'lgan faolligi sezilarli darajada oshdi.

Biz amaliyot davomida faqatgina dars kuzatib yo dars o'tibgina qolamay 9-aprel Amir Temurning tavallud ayomi munosabati bilan o'quvchilar bilan birgalikda maktabdagi o'qituvchilarga va institutdagi o'qituvchilarimizga tadbir uyushtirib berdik. Ushbu tadbir orqali buyuk sarkarda, shoir va davlat arbobi Boburning boy ilmiy-ma'naviy merosi keng yoritildi. Bayram jarayonida o'quvchilar tomonidan Bobur g'azallari ifodali o'qildi, sahna ko'rinishlari namoyish etildi hamda uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan qiziqarli chiqishlar tashkil etildi. Tadbir nihoyatda ko'tarinki ruhda o'tdi va barchaga unutilmas taassurot qoldirdi. Eng muhimi, bu orqali yoshlar qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat, ajdodlarimiz merosiga qiziqish va faxr tuyg'ulari yanada mustahkamlandi.

Amaliyotimiz davomida biz nazariy bilimlarimizni mustahkamlash bilan birga, pedagogik jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga erishdik. Maktabdagi o'qituvchilardan olingan tajribalarimiz orqali turli metodlarni, uslublarni va ularni o'quvchilarga qanday tatbiq etishni o'rgandik. Har bir o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, o'z navbatida, ta'lim jarayonining sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Biz pedagogik texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish orqali o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkinligini angladik. O'quvchilarning o'z o'qishlarini qanday ravishda mustaqil ravishda boshqarishlari va o'z qobiliyatlarini rivojlantirishlari muhimdir. Buning uchun esa o'qituvchilar sifatida bizning yondashuvimiz yangicha, innovatsion va zamonaviy bo'lishi zarur. Ushbu amaliyot, shuningdek, bizni o'zimizga bo'lgan ishonchimizni oshirdi. Biz o'z kasbimizga bo'lgan sevgi va ehtirosimizni his etdik, bu esa ta'lim berishda yanada samarali bo'lishimizga yordam beradi. Kelajakda o'qituvchi sifatida biz har bir o'quvchining potensialini ochishga, ularni rag'batlantirishga va ijtimoiy mas'uliyatlari haqida o'ylashga intilamiz.

Umuman olganda, amaliyot davomida olingan tajribalar va bilimlar bizning kasbiy rivojlanishimizga katta hissa qo'shdi. Boshqa o'qituvchilar tajribasidan foydalanish, pedagogik metodlarni ishlab chiqish va amaliyot orqali o'zimizni sinovdan o'tkazish bizga kelajakdagi o'qituvchilik faoliyatimizda yordam beradi. Amaliyot jarayonida ko'plab yangi g'oyalar va yondashuvlardan ilhomlanib, o'zaro hamkorlikni mustahkamlash va o'qitish jarayonini yanada jozibador qilishga tayyormiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasoylari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-289-son Qarori.
3. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi (Darslik). – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2008.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste’dod" jamg’armasi, 2008.
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013.